

## TIQXMMI Buxoro filialida magistratura imtihonlari davom etmoqda

13-18-avgust kunlari TIQXMMI Buxoro filialida mutaxassislik fanidan magistratura imtihonlari bo'lib o'tishi e'lon qilingan edi. 9 ta mutaxassislik bo'yicha 54 nafar grant o'rinlarga 238 nafar abituriyentlar talabgor bo'lishmoqda. Imtihonlarni adolatli va shaffof o'tishini ta'minlash maqsadida <https://imtihon.edu.uz/Buxoro/36> havolasi orqali onlayn kuzatish imkoniyati yaratilgan. Imtihon jarayonida talabalarga karantin qoidalariga rioya qilgan holda barcha qulayliklar yaratilgan: qog'oz, ruchka, maska, antiseptik vositalar va salqin muhit. Imtihon jarayonlari haqida batafsil har soatda t.me/TIQXMMIBuxoro telegram kanalida ma'lumot berib kelinmoqda. Imtihon natijalari imtihon kuni komisiya a'zolari tomonidan imzo va muhrlanib rasmiy sahifamiz tiamebb.uz sayti orqali e'lon qilib borilmoqda. Imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida tiameibb@gmail.com elektron pochtaiga apelyatsiya bo'yicha murojaat qilishlari mumkin.



**TIQXMMI Buxoro filiali Matbuot xizmati**